

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BOSHLANG`ICH PROFESSIONAL TA`LIMNING  
FAN DASTURI**

**Fan dasturining nomi:** Chet tili (Ingliz tili)

**Ajratilgan soat:** 120

**Toshkent – 2020**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKA XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI TOMONIDAN TASDIQLANGAN  
DASTUR ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN.**

**Tuzuvchi:**            **M.N.Yuldasheva**      Sergeli tuman kasb-hunar maktabi Ingliz tili  
fani o'qituvchisi

**U.P.Gazibayeva**      Sergeli tuman kasb-hunar maktabi Ingliz tili fani  
o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

## 1. O'quv dasturi umumiy talablari

<b>Dastur nomi</b>	Chet tili (Ingliz tili)
<b>Ajratilgan soat</b>	120
<b>Dasturning maqsadi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'quvchilarning ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>• nutq faoliyatining 4 asosiy turi – nutq, tinglab tushunish, o'qish va yozish bo'yicha kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>• o'quvchi shaxsiyatini, nutq qobiliyatini, e'tiborini va fikrlashini rivojlantirish;</li> <li>• xorijiy tilni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish.</li> </ul>
<b>O'zlashtirish natijalari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'quvchi mavzu bo'yicha o'z fikrini xorijiy tilda bildira oladi;</li> <li>• tengdoshlarini qiyinchiliksiz tushuna oladi va ular bilan turli mavzularda erkin muloqot qila oladi;</li> <li>• kasbiy faoliyatda yangiliklar va voqealarni tushuna oladi;</li> <li>• turli mavzularda fikrini yozma tarzda bayon qila oladi;</li> <li>• xorijiy tilda xat, ariza va murojaatlar yoza oladi;</li> <li>• xorijiy tildagi gazeta, jurnal, kitoblarni o'qib, umumiy ma'nosini tushuna oladi.</li> </ul>
<b>Bilimlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Voqea-hodisaning rivojlanishini tushuntirib bera oladi, hozirga aloqador holatlar va vaziyatlarni tasvirlab bera oladi, narsalarning asosiy xususiyatlarini aytib o'tib, o'zining fikrini qisqacha bayon eta oladi.</li> <li>• Ilm-fan, matematika, geografiya, tarix va boshqa fanlarga doir turli mavzularda eshitgan, o'qigan yoki ko'rgan matnlarini tushunib, izohlab va tahlil qila oladi.</li> <li>• Standart tilda berilgan ko'plab radio eshiritishlar yoki ovozli xabarlardagi matn mavzuni tushuna oladi.</li> <li>• Biroz tayyorgarlik yordamida turli xil anketalarni (internetdagi, telefondagi yoki qog'oz variantdagi) va boshqa turdagi arizalarni, savolnomalarni tushunib to'ldira oladi.</li> </ul>
<b>Ko'nikmalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aniq kundalik mavzular doirasida osonlik bilan ham yozma ham og'zaki ko'rinishda gap turlarini (sodda, bog'langan, qo'shma, shart gaplar, aniq, majhul nisbatli va aniqlovchili ergash gaplar) yasay oladi.</li> <li>• Ma'lumotlarni tanqidiy baholay oladi va ulardan o'z vazifalarida to'g'ri va ijodiy foydalana oladi.</li> </ul>
<b>O'quv rejasiga muvofiq bog'liq bo'lgan boshqa o'quv dasturining nomi</b>	Geografiya, tarix, biologiya.
<b>O'qitishni tashkiliy shakli</b>	N – Nazariy ta'lim; A – Amaliy ta'lim; NA – Nazariy va amaliy ta'lim birgalikda tashkil etiladi;
<b>Dasturga qo'yilgan talab</b>	Majburiy
<b>O'qitish tili</b>	Guruhda belgilangan o'qitish tili asosida

<b>Baholash tartibi</b>	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
<b>O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash</b>	Yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

## 2. O'quv dastur mazmuni

<b>№</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Jami</b>	<b>O'qitishni tashkiliy shakli</b>	<b>Mustaqil ta'lim</b>
1.	<b>Lesson 1.</b> <b>Mening vatanim</b> - O'zbekistonga hush kelibsiz! - O'zbekistonning diqqatga sazovor joylari; - O'zi tug'ilib o'sgan va yashayotgan joyi haqida; - O'zbekistonning mashhur insonlari; - O'zbekistonning yigirma yildan so'nggi taraqqiyoti.	6	A	2
2.	<b>Lesson 2.</b> <b>Kasbingiz nima?</b> - kasb turlari haqida ma'lumot; - kasbda mashhur bo'lgan insonlar; - o'smirlar uchun ish joylari haqida ma'lumot; - ish uchun suhbat; - kasb tanlashga motivatsiya.	6	A	2
3.	<b>Lesson 3.</b> <b>Mening kelajak rejalarim</b> - avvalgi amalga oshirgan ishlarini tahlili va keljak rejalarini haqida ma'lumot; - buyuk rejalarining yutuqlari bilan mashhur bo'lgan shaxslar; - bugun va erta; - rejalar tuzish va ularni amalga oshirish; - mening biznes rejam.	6	A	2
4.	<b>Lesson 4.</b> <b>Vaqtning to'g'ri taqsimlash</b> - Qachon? Qayerda? Qanday? - vaqtning to'g'ri taqsimlash; - kundalik, haftalik, oylik va yillik rejalar tuzish; - qoyilgan maqsadlarni o'z muddatida bajarish sirlari.	6	A	2
5.	<b>Lesson 5.</b> <b>Guruh bilan ishlash</b> - O'zi va tengdoshlari qiziqishlari haqida ma'lumot; - O'zi va tengdoshlarining muammolari; - Guruh ishlari va guruhlarda ishlash. - Online darslarda o'zaro hamkorlik (collaboration in online lessons).	6	A	2
6.	<b>Lesson 6.</b> <b>Xalqaro hamkorlik aloqalari</b>	6	A	2

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dunyodagi xalqaro tashkilotlar;</li> <li>- O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar;</li> <li>- xalqaro hamkorlikda erishilgan yutuqlar;</li> <li>- ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik.</li> </ul>			
7.	<b>Lesson 7.</b> <b>Hujjatlarni to'ldirish</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- rasmiy xat va qaydlar, yozishmalar;</li> <li>- norasmiy xatlar yozish;</li> <li>- so'rovnomalar to'ldirish;</li> <li>- rasmiy hujjatlar yaratish.</li> </ul>	6	A	2
8.	<b>Lesson 8.</b> <b>Ko'nikmalarni shakllantirish</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ko'nikmalar haqida ma'lumot;</li> <li>- ko'nikmlarani shakllantiruvchi omillar;</li> <li>- shakllangan ko'nikmalarni rivojlantirish omillari.</li> </ul>	6	A	2
9.	<b>Lesson 9.</b> <b>Ommaviy axborot vositalari</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- elektron axborot tizimi;</li> <li>- internet va yoshlar;</li> <li>- axborot xavfsizligi;</li> <li>- freelance uslubida daromad topish usullari.</li> </ul>	6	A	2
10.	<b>Lesson 10.</b> <b>O'zbek va tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O'zbek adabiyoti;</li> <li>- jahon adabiyoti;</li> <li>- adabiyotning til o'rganishdagi o'rni;</li> <li>- kitoblar orasidagi hayot.</li> </ul>	6	A	2
11.	<b>Lesson 11.</b> <b>Jamiyatning faol a'zosi</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- shaxsning jamiyatdagi o'rni;</li> <li>- faol o'rganuvchi;</li> </ul>	6	A	2
12.	<b>Lesson 12.</b> <b>Atrof-muhit muammolari</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Global muammolar;</li> <li>- tabiatni muhofaza qilish;</li> <li>- vaziyatni tahlil qilish;</li> <li>- yerosti va yerusti resurslari;</li> <li>- global muammolar echimida mening xissam.</li> </ul>	6	A	2
13.	<b>Lesson 13.</b> <b>Sog'lom turmush tarzi</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- shaxsiy gigiyena;</li> <li>- atrof-muhit gigiyenasi;</li> <li>- Sog' tanda sog'lom aql!;</li> <li>- oziq-ovqat muammolari;</li> <li>- atrof-muhit muammolariga mening takliflarim.</li> </ul>	6	A	2
14.	<b>Lesson 14.</b> <b>Turizm</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- sayyohlik davlatlari;</li> <li>- dunyoning sayyohlik markazlari;</li> <li>- O'zbekistonda sayyohlik;</li> <li>- turizmni rivojlantirishda mening rejam</li> </ul>	6	A	2

15.	<b>Lesson 15.</b> <b>Bozor iqtisodiyoti</b> - iqtisodiyot sohalari; - hisobot tayyorlash; - reklama; - men va shahsiy biznesim.	6	A	2
16.	<b>Lesson 16.</b> <b>Maishiy xizmat</b> - maishiy xizmat turlari; - maishiy xizmat rivojiga asoslangan ichik biznes rejasini yaratish; - maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari; - maishiy xizmat turlarini o'zlashtirish .	6	A	2
17.	<b>Lesson 17.</b> <b>Mutoala</b> - <b>adabiy janrlar;</b> - yoqtirgan adib va asar; - matn tanlash; - ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish; - asar haqida xulosam.	6	A	2
18.	<b>Lesson 18.</b> <b>Ko'chirmakashlik</b> - <b>ko'chirmakashlik;</b> - mualliflik huquqi; - sog'lom fikr; - taqlid va tahlil. - ko'chirmakashlikning afzalliklari va zararlari (benefits and drawbacks)	6	A	2
19.	<b>Lesson 19.</b> <b>O'z-o'zini baholash</b> - sizdan nima kutilmoqda? - sog'lom tanqid; - o'z-o'zini tahlil qilish; - men tahsil olayotgan ingliz tili kurs tahlili.	6	A	2
20.	<b>Lesson 20.</b> <b>Talaba bo'lishga tayyormisiz?</b> - <b>men yoqtirgan kasb;</b> - kelajak rejalarni tuzish; - anketa va so'rovnomalar to'ldirish; - qaydlar yozis; - maqsadga erishish rejasi.	6	A	2
<b>SUMMATIVE ASSESSMENT # 1</b>		120		

### 3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'tkazilgan mavzular bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

### **Tinglab tushunish:**

Ishga yoki har kunlik hayotiga taaluqli mavzudagi soʻzlar bilan oʻz maʼnosida ishlatilgan nutqni tushuna oladi, undagi umumiy maʼno va baʼzi detallarga eʼtibor qaratadi. Ammo bunda nutq ravon va tanish shemada boʻlishi shart. Tez-tez tilga olinadigan ish, oʻqish, dam olish kabi tanish mavzularda adabiy tildagi ravon nutqni tushunadi. Shu jumladan televidenie va radio eshittirish, kinolarini tushunadi. Akademik litsey va kollej oʻquvchilarining ushbu koʻnikmalarini darsda va darsdan tashqarida rivojlantirib borishlari uchun har darsda “til muhiti”ni yaratish uslublarini yaratishga ijodiy yondashish zarur. Turli manbalardan, jumladan oʻz sohasi va qiziqishlariga qarab manbalarni izlash madaniyatini oʻquvchilarga singdirib borish maqsadga muvofiq.

### **Gapirish**

Oʻz sohasiga aloqador tanish mavzularda oʻziga ishonch bilan muloqotga kirisha oladi. Fikr almashishi, maʼlumotni tekshirishi yoki tasdiqlashi mumkin. Odatdan tashqari mavzularda soʻzlasha oladi, muammo nimada ekanini koʻrsatib beradi. Mavhum mavzularda, masalan, madaniyat, kino, kitoblar haqida gapira oladi. Sayohat qilishga oʻxshash holatlarda soʻz boyligining koʻp qismini ishlata oladi. Tanish mavzularda tayyorgarliksiz soʻzlashadi, oʻz fikrini bildiradi (oilalar, qiziqishlari, hissiyotlari, ish, sayohat, hozirda boʻlayotgan voqealar). Oʻquvchilarning gapirish koʻnikmalarini rivojlantirish uchun darsning har bir daqiqasini oʻquvchilarni gapirtirishga undash, til muhitini yaratish, qiziqarli vaziyatlarni vujudga keltirib, oʻquvchilar qaysi tilda gapirayotganini esdan chiqaradigan darajada oʻyinlar tashkil qilish kerak. Bu uchun ushbu dasturda koʻrsatilgan manbalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

### **Oʻqish**

Oʻzi qiziqqan mavzularda oʻrtacha matnni bemalol qoniqarli darajada tushuna oladi. Oʻz kasbi, yoshi, qiziqishini qamrab oladigan matnlar bilan ishlay oladi va tushunadi. Matnlar bilan ishlashda “scanning” – “skanerdan oʻtqazish” yoki “shemming” – shemalar va tablitsalarni qarab tushunish, mantiqiy fikrlash darajalarini berib borish kerak boʻladi. Chunki asta-sekin oʻsmir yoshidan balogʻat yoshiga oʻtayotgan yoshlar uchun bu koʻnikmalar juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oʻqish koʻnikmasini rivojlantiradigan koʻnikmalar manbasiga murojaat qilish, koʻproq uyga vazifa berish, vazifalarni oddiydan murakkabga oʻtish mexanizmini ishlatish tavsiya etiladi.

### **Yozish**

Oʻzi uchun qiziqarli boʻlgan mavzuda oʻrtacha 25- 500 ta soʻzgacha matn tuza oladi (bunda qisqa gaplar qatori birinchi kursda). Ikkinchi kursdan boshlab kurs va diplom ishlarini amalga oshirayotganda va har bir darsning portfoliosini bajarganda yozuv koʻnikmalari berilib boriladi. Oʻquvchilar oʻz fikrlarini har kunlik kundalik sifatida oz-ozdan yozib borsalar, biror darsdan ikkinchi darsga ularning koʻnikmalari rivojlanib borayotganini oʻzlari ham his qilib borishlariga eʼtibor berilishi lozim. Yozishda plagiastlik haqida tushuncha berib borish, imkon qadar uni tekshirib, oʻquvchilarda bir-birining yozuviga nisbatan hurmatini oʻstirib borish tavsiya etiladi.

#### **Ravish**

*too, enough* bogʻlovchilari

Qiyosiy va orttirma daraja

Murakkab tasdiq soʻroq gaplar

Shart ergash gaplar 2-3

Soʻz birikmalarini solishtirish, taqqoslash

Kelasi zamon davom feʼli

Modal feʼllar - *must/can't* xulosalash

Modal feʼllar – *might, may, will*, ehtimol

Modal feʼllar – *should have/might have*/va h.k

Modal feʼllar: *must/have to*

Oʻtgan davom

Oʻtgan tugallangan

O'tgan zamon  
 O'tgan zamondagi javoblar  
 Fe'lli birikmalar  
 Hozirgi davomli tugallangan zamon  
 Hozirgi tugallangan/ o'tgan zamon  
 O'zlashtirma gap  
 O'tgan zamondagi majhul nisbat  
 Wh- savollar  
 Will va going to bashorat uchun

### Nazorat mezonlari

I-bosqich	Tinglab tushunish	O'qish	Yozish	Gapirish
Matnlar	Tinglab tushunish uchun berilgan audio topshiriq 15-20 daqiqalik, bir marta eshittiriladi	500-800 so'zni qamrab olgan 3 ta matn	100-150 ta so'z hajmidagi bayon	
Topshiriqlar	10-20 tagacha tinglangan matn yuzasidan tushunganlikni aniqlab beruvchi turli topshiriqlar	25 tadan kam bo'lmagan o'qib tushunganlik darajasini aniqlab beradigan turli topshiriqlar		Tanlangan mutahassislikka oid dastlabki ma'lumotlarni og'zaki taqdimot qilish
Vaqt	20 daqiqa	60 daqiqa	60 daqiqa	8-10 daqiqa

II-bosqich	Tinglab tushunish	O'qish	Yozish	Gapirish
Matnlar	4 qismdan iborat bo'lgan 20-30 daqiqalik tinglab tushunishi uchun audio matnlar	600-900 so'zni qamrab olgan 3 ta matn	150-200 ta so'z hajmidagi insho	
Topshiriqlar	Topshiriqlar miqdori 30-40	30-35 ta o'qib tushunganlik darajasini aniqlab beradigan turli topshiriqlar	Yozish talab etiladigan 2ta topshiriq	Mutaxassislikka yo'naltirilgan kurs ishlarini, loyihani og'zaki taqdimot qilish
Vaqt	30 daqiqa	60 daqiqa	60 daqiqa	10 daqiqa
III-bosqich	Tinglab tushunish	O'qish	Yozish	Gapirish
Matnlar	4 qismdan iborat bo'lgan tinglab tushunish uchun audio matnlar	1000-1200 so'z ishtirok etgan 3ta matn	200-250 ta so'z hajmidagi insho	
Topshiriqlar	Tinglab tushunganlik darajasini aniqlab beradigan topshiriqlar 30-40ta	O'qib tushunganlik darajasini aniqlab	2 qismdan iborat bo'lgan yozish uchun topshiriqlari	Mutaxassislik doirasida yozilgan bitiruv



		beradigan topshiriqlar	A) 150 soʻz B) 250 soʻz	malakaviy ishni ogʻzaki himoya qilish
Vaqt	30-40 daqiqa	60 daqiqa	60-70 daqiqa	10-15 daqiqa

JOYIMKA